SEMANTIC AND ETYMOLOGICAL FEATURES OF TOPONYMIC INDICATORS

Usmanjanova Shaxloxon Ismailjan qizi
Namangan State University, Linguistics: Uzbek Language
1st year Master's student
usmanjanova02@gmail.com
+998996457720

Annotatsiya. Ushbu maqolada toponimik indikatorlarning semantik va etimologik xususiyatlari o‘zbek onomastikasi materiallari asosida tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida joy nomlarining shakllanish modellari, ularning strukturaviy turlari va hududning tarixiy-etnik qiyofasini aniqlashdagi lisoniy ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Onomastika, toponimika, toponimik indikator, gidronim, oronim, oykonim, makrotoponim, mikrotoponim, etimologiya, semantika.

Аннотация. В данной статье исследуются семантические и этимологические особенности топонимических индикаторов на основе материалов узбекской ономастики. В ходе исследования освещаются модели формирования географических названий, их структурные типы и лингвистическое значение в восстановлении историко-этнического облика региона.

Ключевые слова: Ономастика, топонимика, топонимический индикатор, гидроним, ороним, ойконим, макротопоним, микротопоним, этимология, *семантика.*

Abstract. This article examines the semantic and etymological characteristics of toponymic indicators based on Uzbek onomastic materials. The study highlights the formation models of place names, their structural types, and linguistic significance in reconstructing the historical and ethnic landscape of a region.

Key words: Onomastics, toponymy, toponymic indicator, hydronym, oronym, oykonym, macrotoponym, microtoponym, etymology, semantics.

Onomastika – adabiyotshunoslik, tarix, geografiya va etnografiya kabi fanlar tutashgan nuqtada shakllanib, obyektlarni nomlash ehtiyoji asosida rivojlangan ko‘p tarmoqli sohadir. O‘zbek onomastikasida eng ko‘p tadqiq etilgan yo‘nalish **toponimika** bo‘lib, uning nazariy asosi Z. Do‘simov, S. Qorayev hamda T. Enazarov kabi olimlarning fundamental doktorlik ishlari bilan mustahkamlandi[1]. O‘zbek onomastika maktabining taniqli vakillari (T. Nafasov, S. Qorayev, Z. Do‘simov) tomonidan respublikamizning barcha viloyatlaridagi joy nomlari tahlil qilinib,

[1] Matnazarov M. Onomastika fanidan o‘quv-uslubiy majmua. – Urganch, 2022. – B. 8.

toponimlarning etimologik va lisoniy manbalari boyitildi[2]. Mazkur tadqiqotlar joy nomlarini nafaqat geografik birlik, balki xalqning lisoniy va tarixiy xotirasi sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Qadimdan bir narsani uning o‘xshashidan farqlash uchun ularga maxsus nom qo‘yiladi. Masalan, soyni soydan, ko‘chani ko‘chadan ajratish maqsadida barcha narsa o‘ziga xos ataladi. Shu ehtiyoj samarasi o‘laroq geografik nomlar yoki toponimlar paydo bo‘ldi. Ularni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi maxsus toponimika fani yuzaga keldi. Ya’ni toponimlar o‘zi o‘rganayotgan obyektining xarakteriga ko‘ra bir necha asosiy turlarga bo‘linadi[3].

Toponimik tizimni o‘rganishda nafaqat joy nomlarining lug‘aviy ma’nosi, balki ularning tarkibiy qismlari, ya’ni **toponimik indikatorlar** muhim ahamiyat kasb etadi. Toponimik indikator — bu muayyan bir geografik obyektning turini, xarakterini yoki unga xos xususiyatni bildiruvchi barqaror leksik birlikdir.

Toponimik indikatorlar joy nomlarining “skeleti” hisoblanib, ular yordamida nomning qaysi toifaga (gidronim, oronim yoki oykonim) mansubligini aniqlash mumkin. Masalan, *-obod*, *-kent*, *-qishloq* kabi birliklar oykonimik indikatorlar bo‘lsa, *-daryo*, *-soy*, *-ko‘l* kabi birliklar gidronimik indikatorlar sanaladi.

Toponimik tizimning qamrovi va obyektlar miqyosiga ko‘ra tasniflanishi indikatorlarning funksional vazifalarini aniqroq tushunish imkonini beradi. Quyidagi jadvalda toponimikaning asosiy tarmoqlari, ularning etimologik mazmuni va tadqiq obyektlari tizimlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval

Toponimikaning obyekti va yo‘nalishlar bo‘yicha tasnifi

Yo‘nalish	Etimologiyasi	O‘rganish obyekti	Toponimik indikatorli misollar
Gidronimiya	yun. *gidro* — suv	Daryo, ko‘l, dengiz, kanal, sharshara va boshqa suv havzalarining nomlari.	Oq**daryo**, Norin**soy**, Abdulla **soy**[4],

[2] O‘sha manba, – B. 17.

[3] «Onomastika va toponimika» fanidan ma’ruza matnlari. – Nukus, 2012. – B. 33.

[4] O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi jild (A – O). N.M. Mahmudov va boshqalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – B. 14.

			Qonli**ko‘l**
Oronimiya	yun. *oros* — tog‘	Yer sathining relyef shakllari: tog‘lar, cho‘qqilar, vodiylar, qirlar va tekisliklar nomlari.	Qora**tog‘**, Qo‘rg‘on**tepa**, Baland**adir**
Oykonimiya / Polinimiya (Urbanonimiya)	yun. *oykos* — uy, *polis* — shahar; lot. *urbos* — shahar	Aholi punktlari, ya’ni shahar, qishloq, ovul va mahalla nomlari.	Nur**obod**, Vob**kent**, Nav**kent**
Etnotoponimlar	yun. *etnos* — xalq	Millat, elat, urug‘ va qabila nomlari asosida shakllangan joy nomlari.	**Nayman**cha, **Qo‘ng‘irot**
Antropotoponimlar	yun. *antropos* — odam	Muayyan shaxs ismlari, laqablari yoki familiyalari asosida vujudga kelgan geografik nomlar.	**Mirzo Ulug‘bek** tumani, **Boyovut**

E’tiborli jihati shundaki, toponimlar nafaqat obyektning xarakteriga ko‘ra (gidronim, oronim), balki egallagan hududi va miqyosiga ko‘ra ham makro va mikrotoponimlarga iyerarxik tarzda bo‘linadi. Bu esa o‘z navbatida indikatorlarning lokal yoki global xususiyatga ega ekanligini belgilaydi:

1. **Makrotoponimiya** (yun. *makros* — katta) — yirik geografik obyektlar: qit’alar, okeanlar, dengizlar, davlatlar va ulkan tog‘ tizmalari nomlari. *Misollar:* **Tinch okeani, O‘zbekiston, Pomir tog‘lari.**
2. **Mikrotoponimiya** (yun. *mikros* — kichik) — kichik hajmdagi obyektlar: quduqlar, dalalar, ko‘priklar, jarlar va yo‘llar nomlari. Mikrotoponimik indikatorlar ko‘pincha mahalliy sheva va lahjalarga xos xususiyatlarni o‘zida aks ettiradi. *Misollar:* **Sultonbuloq, Oqtepa, G‘ishtko‘prik, Teshikjar.**

Toponimik indikatorlar tilda ifodalanish usuliga ko‘ra ikki asosiy ko‘rinishga bo‘linadi:

– **Kompozitsion (leksik) ko‘rinishda:** Bunda toponimik indikator mustaqil ma’noli so‘z bo‘lib, nom tarkibiga qo‘shilib keladi va murakkab toponimni hosil qiladi. Masalan, **Amudaryo** (*-daryo*), **Taxtako‘pir** (*-ko‘pir shevada, asli ko‘prik*[5]) va **Qonliko‘l** (*-ko‘l*) nomlari kompozitsion usulda shakllangan bo‘lib, ularning tarkibidagi ikkinchi komponent obyekt turini belgilovchi asosiy indikator vazifasini o‘taydi.

– **Affiksal (morfologik) ko‘rinishda:** Bunda joy nomi maxsus joy nomi yasovchi qo‘shimchalar yordamida shakllanadi. Masalan, **Guliston** (*-iston*), **Paxtakor** (*-kor*) yoki **Boyovut** (*-ovut*) kabi nomlar tarkibidagi affikslar joy ma’nosini yuklovchi ko‘rsatkichlar hisoblanadi[6].

[5] Taxtako‘pir tumani // Wikipedia: ochiq ensiklopediya. – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Taxtako‘pir_tumani

[6] «Onomastika va toponimika» fanidan ma’ruza matnlari. – Nukus, 2012. – B. 37-40.

Toponimlar yasashda muayyan affiksal indikatorlar muhim rol o'ynaydi. O‘zbek toponimiyasida ko‘plik kategoriyasini bildiruvchi asosiy indikatorlar quyidagilar:

1) **-lar affiksi:** Asosan kishilar va urug‘lar bilan bog‘liq nomlarni yasaydi. Masalan: Beklar, Zargarlar, Arablar, Qarg‘alar (urug‘ nomi).
2) **-on affiksi:** Tojikcha affiks bo'lib, guruhlarga (millat, urug‘, kasb) mansublikni bildiradi. Masalan: Arabon (arablar), Mang‘iton (mang‘itlar), Kosagaron (kosa ustalari).
3) **-ot (-t) affiksi:** Arabcha yoki sug‘diycha kelib chiqishga ega bo‘lib, joyning tevarak-atrofini ham bildiradi. Masalan: Bog‘ot (bog‘lar), Rabotot (rabotlar), Miyonkolot[7].

Toponimlarning tuzilishi muayyan lingvistik qoliplarga asoslanadi:

a) **Sifat + ot modeli:** *Oqdaryo, Qoraqum, Yangiqo‘rg‘on.*
b) **Ot + ot modeli:** *Qo‘rg‘ontepa, Toshquduq.*
c) **Son + ot modeli:** *Uchquduq, Yettiariq, Beshyog‘och.*

Toponimik indikatorlarni o‘rganish hududning tarixiy-etnik qiyofasini qayta tiklashda ham beqiyos manba bo‘lib xizmat qiladi. Chunki indikatorlar vaqt o‘tishi bilan tilda arxaiklashsa-da, joy nomlari tarkibida o‘zining qadimiy ma’nosini va shaklini saqlab qoladi. Masalan, bir hududda hozir suv qurib qolgan bo'lsa-da, uning nomidagi **“-soy”** yoki **“-quduq”** qo‘shimchasi o‘sha joyning o‘tmishdagi tabiiy landshaftidan dalolat beradi. Bu esa tilshunos va tarixchilarga muayyan hududda qaysi xalqlar yashaganligi va qanday tilda so‘zlashganligi haqida aniq lisoniy dalillar beradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, toponimik indikatorlar tizimini tadqiq etish o‘zbek onomastikasining fundamental masalalaridan biri bo‘lib, u joy nomlarining nafaqat lisoniy, balki geografik va tarixiy mohiyatini ochishda kalit vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

I. Ilmiy adabiyotlar va darsliklar

1. Begmatov E. O‘zbek onomastikasi masalalari. – Toshkent: Fan, 1980. – 128 b.
2. Matnazarov M. Onomastika fanidan o‘quv-uslubiy majmua. – Urganch: UrDU, 2022. – 91 b.
3. «Onomastika va toponimika» fanidan ma’ruza matnlari. – Nukus: NMPI, 2012. – 45 b.
4. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 320 b.
5. Qorayev S. Geografik nomlar ma’nosi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1978. – 184 b.
6. Uluqov N. O‘zbekiston gidronimlarining lisoniy tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2008. – 144 b.

II. Dissertatsiya va avtoreferatlar

7. Enazarov T. O‘zbekiston toponimlarining lisoniy tahlili: Filol. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2004. – 280 b.

[7] Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – B. 8-10.

III. Lug‘atlar va ma’lumotnomalar

8. Do‘simov Z., Egamov X. Joy nomlarining tushuntirishli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1977. – 174 b.
9. Mahmudov N. va boshq. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi jild (A – O). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – 460 b.
10. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1988. – 288 b.
11. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (Turkiy tillar). – Toshkent: Universitet, 2003. – 598 b.

IV. Elektron resurslar

12. Taxtako‘pir tumani // Wikipedia: ochiq ensiklopediya. – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Taxtako‘pir_tumani